

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 1 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 9, НОМЕР 1

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 9, ISSUE 1



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2026-1>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Ўзбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шнукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масъул қотиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

Мўминова Маъсума Ғолиб қизи
ф.ф.д., (PhD) вб. доцент

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистан)

Якуб Умар оғли
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джўраев Маматкул
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Джеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Балтабаев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Дўстмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Сиддикова Ирода
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Шнукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистан)

Муминова Масума Ғолиб қизи
PhD и.о. доцент

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarchodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammadov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

Mo'minova Ma'suma
PhD Acting Docent
(Uzbekistan)


PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Tursunova Parvina Mamurjonovna NUTQIY HUSHMUOMALALIK IFODALANISHIDA YOLG‘ON ISHLATILISHINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI (ISPAN TILI MATERIALLARI ASOSIDA).....	5
2. Умурова Гузал Хотамовна ПСИХОЛОГИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА - ЗНАЧИМОСТЬ КОМПЛЕКСНОГО ПОДХОДА К ИЗУЧЕНИЮ И ОРГАНИЗАЦИИ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	10
3. Даминова Фазода Ирисовна ТЕОРЕТИКО-ИСТОРИЧЕСКИЕ И МИРОВОЗЗРЕНЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДРЕВНЕРУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....	15
4. Рахматова Гулнора Турсиновна ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ: РЕЗУЛЬТАТЫ КОРПУСНОГО АНАЛИЗА.....	22
5. Усманова Салиха Юлдашевна ИЗ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ ВВОДНО-МОДАЛЬНЫХ ЕДИНИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ.....	32
6. Ибаев Анвар Журабекович ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ОККАЗИОНАЛЬНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ЕЁ ТИПЫ.....	41
7. Т.А.Эргашева СОЛИҚ РЕЗИДЕНТИ ТУШУНЧАСИНИНГ ХАЛҚАРО ҲУЖЖАТЛАРДАГИ ПРАГМАЛИНГВИСТИК ТАҲЛИЛИ.....	47
8. Nomozov Abdiaziz Mustaqimovich ARAB VA INGLIZ MUROJAAT SHAKLLARINING QIYOSIY-PRAGMATIK TAHLILI: ZAMONAVIY KOMMUNIKATSIYA KONTEKSTIDA.....	52
9. Davlatova Hulkaroy Uktamovna RAQAMLI MUHITDA BOLALIK: ZAMONAVIY SHAROITDA TIL O‘ZLASHTIRISH OMILLARI.....	58
10. Abdunazarova Maftuna Fakhriddinovna PRAGMATIC AND FUNCTIONAL ANALYSIS OF SPEECH ACTS IN DIALOGIC DISCOURSE.....	64
11. Nomozov Abdiaziz Mustaqimovich ARAB VA INGLIZ MUROJAAT SHAKLLARINING QIYOSIY-PRAGMATIK TAHLILI: ZAMONAVIY KOMMUNIKATSIYA KONTEKSTIDA.....	71
12. Nilufar Abduraxmonova, Abdullayeva Shakhnoza Rakhimjon qizi ONTOLOGICAL MODELING INFORMATION TECHNOLOGY TERMS IN UZBEK.....	77
13. Aybibi ISKANDAROVA O‘ZBEK KORPUSSHUNOSLIGIDA PARALLEL KORPUSGA OID TADQIQOTLAR VA ULARNING LINGVISTIK AHAMIYATI.....	87
14. Abdullaeva Sanobar Bakhrillaevna THEORETICAL STUDY OF PHRASEOLOGY IN THE ANTHROPOCENTRIC PARADIGM.....	93
15. Воҳидов Абдувахоб САМАРҚАНД ТОЖИКЛАРИ ШЕВАСИ ФРАЗЕОЛОГИК ЖУФТ ТАРКИБЛАРИ ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР.....	99
16. Усманова Салиха Юлдашевна, Мирзаева Шахло Ризаевна ИЗУЧЕНИЕ ГЛАГОЛОВ, СПОСОБНЫХ ПРИНИМАТЬ ПРЕДИКАТНЫЙ АКТАНТ.....	104

17. Zaynutdinova Durdona Asatovna ARTIFICIAL INTELLIGENCE AS A TOOL FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNERS (Evidence from EFL Settings in the Republic of Uzbekistan).....	109
18. Atabayeva Zarnigor Bakhran kizi THE DEMONIZATION OF DORIAN GRAY: AESTHETICISM, MORAL DECLINE, AND THE DUALITY OF HUMAN NATURE IN VICTORIAN LITERATURE.....	118
19. Ochilova Noila Farmonovna O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA “OTA”KONSEPTINING TALQINI.....	122
20. Abduraxmonova Sohiba Aktam qizi BOLALAR NUTQINING O‘RGANILISHI (ESKI NAZARIYALARDAN ZAMONAVIY YONDASHUVLARGACHA).....	126
21. Sharipov Raufjon Elmurod o‘g‘li AKADEMIK G‘ANIJON ABDURAHMONOVNING “TARIXIY SINTAKSIS” ASARIDA QO‘SHMA GAPLAR EVOLYUTSIYASI.....	130
22. Said-Axmedova Shoxista Nuritdinovna AGENTLIK TUSHUNCHASINING LINGVISTIK TADQIQI.....	135
23. Nilufar Abduraxmonova, Nilufar Botirova SIYOSIY SOHAGA DOIR TARJIMA LUG‘ATINI SHAKLLANTIRISHDA PARALLEL MATNLARNING KONTEKSTUAL TAHLILI.....	141
24. N.M.Shamuradova INGLIZ TILIDA SO‘Z ODOBINI IFODALOVCHI MAQOLLARNING DISKURSIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI.....	148
25. Sevinch Sherzodovna Xolmirzayeva ITALYAN TILIDAGI KO‘P MA‘NOLI SO‘ZLARNING TARJIMADA MA‘NO FARQLANISHI.....	152
26. Башарова Лейла РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ И ВОСПРИЯТИЕ АНТРОПОМОРФНЫХ ЖИВОТНЫХ В ДЕТСКИХ КНИГАХ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОЗНАНИЕ И РАЗВИТИЕ РЕБЕНКА.....	158
27. Ivanova Alena Yadmagieвна TACTILE GESTURES IN CHINESE EVERYDAY COMMUNICATION: TYPOLOGY, FUNCTIONS, CULTURAL MARKEDNESS.....	165
28. Ozoda Tojiboyeva, Xasanova Shaxodat Xamza qizi O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA HADISLARDAN FOYDALANISH AN‘ANASI.....	175
29. Asqar Abdullaev SYNTACTIC STRUCTURES: ESSENCE, TYPES, AND STUDIES IN GLOBAL LINGUISTICS.....	180
30. Nuraliyeva Ozoda Narbayevna FOLKLOR MATNLARIDA IQLIM HODISALARINING RAMZIY BADIYATI.....	185
31. Сабина Авазжоновна Махмудова ОСОБЕННОСТИ РЕПРЕЗЕНТАЦИИ КОНЦЕПТА «ВОЙНА» В РОМАНЕ Р. ОЛДИНГТОНА «СМЕРТЬ ГЕРОЯ».....	193
32. Nasrullayev Javohirxon Ravshanxonovich RAQAMLI HUQUQIY MULOQOTDA YURIDIK TERMINLARNING IJTIMOY-LISONIY MOSLASHUVI.....	200



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Nilufar Abduraxmonova

filologiya fanlari doktori, professor

O'zbekiston Milliy universiteti

Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasini mudiri

n.abduraxmonova@nuu.uz

Nilufar Botirova,

Tayanch doktorant


O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Orcid ID: 0009-0003-7860-834X

Email: nilufarabdiyeva73@gmail.com

SIYOSIY SOHAGA DOIR TARJIMA LUG'ATINI SHAKLLANTIRISHDA PARALLEL MATNLARNING KONTEKSTUAL TAHLILI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.20814959>

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot siyosiy sohaga doir tarjima lug'atini shakllantirishda parallel matnlarning kontekstual tahlilini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, siyosiy terminlarning lingvistik, pragmatik va ideologik xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi—parallel korpuslar asosida siyosiy terminlarning real qo'llanish muhitini tahlil qilish hamda ularning o'zbek tilidagi funksional va kontekstual ekvivalentlarini aniqlashdan iborat. Shu maqsadda quyidagi vazifalar belgilandi: (1) parallel matnlar va korpus lingvistikasining nazariy asoslarini tahlil qilish; (2) siyosiy diskursda uchraydigan terminlarning pragmatik va ideologik yukini aniqlash; (3) inglizcha–o'zbekcha parallel matnlar asosida terminlarning kontekstual muqobillarini qiyosiy o'rganish; (4) siyosiy tarjima lug'ati uchun kontekstual model ishlab chiqish. Tadqiqotda korpus lingvistikasi, konkordans tahlili, alignment, tanqidiy diskurs tahlili (CDA) hamda leksik-statistik metodlardan foydalanildi. Tahlil materiali sifatida Lex.uz, Kun.uz va UzA platformalaridan olingan 2023–2026-yillarga oid siyosiy matnlar tanlab olindi. Natijalar siyosiy terminlarni tarjima qilishda oddiy lug'aviy moslik yetarli emasligini, balki kontekst, pragmatik ma'no va ideologik yukni hisobga olish zarurligini ko'rsatdi

Kalit so'zlar: siyosiy tarjima, parallel matnlar, parallel korpus, korpus lingvistikasi, siyosiy diskurs, pragmatik ma'no, ideologik yuk, tarjima lug'ati, kontekstual tahlil, terminologiya

Nilufar Abdurakhmonova

Doctor of Philological Sciences, Professor

Head of the Department of Computer Linguistics and Applied Linguistics

National University of Uzbekistan

Nilufar Botirova

PhD Student

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

CONTEXTUAL ANALYSIS OF PARALLEL TEXTS IN THE FORMATION OF A TRANSLATION DICTIONARY FOR THE POLITICAL SPHERE

ABSTRACT

This study is devoted to the investigation of the contextual analysis of parallel texts in the formation of a translation dictionary related to the political sphere and is aimed at revealing the linguistic, pragmatic, and ideological features of political terms. The main purpose of the research is to analyze the real usage environment of political terms on the basis of parallel corpora and to determine their functional and contextual equivalents in the Uzbek language. For this purpose, the following tasks were identified: (1) to analyze the theoretical foundations of parallel texts and corpus linguistics; (2) to determine the pragmatic and ideological load of terms occurring in political discourse; (3) to comparatively study the contextual equivalents of terms based on English–Uzbek parallel texts; (4) to develop a contextual model for a political translation dictionary. The research employed corpus linguistics, concordance analysis, alignment, Critical Discourse Analysis (CDA), and lexico-statistical methods. Political texts from 2023–2026 obtained from the Lex.uz, Kun.uz, and UzA platforms were selected as the research material. The results demonstrated that simple lexical equivalence is not sufficient in translating political terms; rather, it is necessary to take into account context, pragmatic meaning, and ideological load.

Keywords: political translation, parallel texts, parallel corpus, corpus linguistics, political discourse, pragmatic meaning, ideological load, translation dictionary, contextual analysis, terminology

Nilufar Abdurakhmonova

доктор филологических наук, профессор
Национальный университет Узбекистана заведующая кафедрой компьютерной лингвистики и прикладного языкознания
n.abdurakhmonova@nuu.uz

Ботирова Нилуфар

Базовый докторант
Узбекский государственный университет
мировых языков Ташкент, Узбекистан

КОНТЕКСТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПАРАЛЛЕЛЬНЫХ ТЕКСТОВ ПРИ ФОРМИРОВАНИИ ПЕРЕВОДЧЕСКОГО СЛОВАРЯ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СФЕРЫ

АННОТАЦИЯ

Данное исследование посвящено изучению контекстуального анализа параллельных текстов при формировании переводческого словаря политической сферы и направлено на раскрытие лингвистических, прагматических и идеологических особенностей политических терминов. Основная цель исследования заключается в анализе реальной среды употребления политических терминов на основе параллельных корпусов, а также в определении их функциональных и контекстуальных эквивалентов в узбекском языке. Для достижения данной цели были поставлены следующие задачи: (1) анализ теоретических основ параллельных текстов и корпусной лингвистики; (2) определение прагматической и идеологической нагрузки терминов, встречающихся в политическом дискурсе; (3) сравнительное изучение контекстуальных эквивалентов терминов на основе англо-узбекских параллельных текстов; (4) разработка контекстуальной модели политического переводческого словаря. В исследовании использовались методы корпусной лингвистики, конкорданс-анализа, критического дискурс-анализа (CDA), а также лексико-статистические методы. В качестве материала исследования были отобраны политические тексты за 2023–2026 годы, полученные с платформ Lex.uz, Kun.uz и UzA. Результаты показали, что при переводе политических

терминов недостаточно простой лексической эквивалентности; необходимо учитывать контекст, прагматическое значение и идеологическую нагрузку

Ключевые слова: политический перевод, параллельные тексты, параллельный корпус, корпусная лингвистика, политический дискурс, прагматическое значение, идеологическая нагрузка, переводческий словарь, контекстуальный анализ, терминология

Siyosat insoniyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, uning tili o'ziga xos murakkablikka ega. Xalqaro munosabatlar, diplomatiya, qonunchilik va ommaviy axborot vositalarida siyosiy xabarlarining aniq va to'g'ri tarjima qilinishi global tinchlik, hamkorlik va o'zaro tushunish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Siyosiy matnlar faqatgina ma'lumot uzatish vositasi emas, balki g'oyalar, mafkuralar va madaniy qadriyatlarning tashuvchisi hamdir. Shu sababli, siyosiy sohadagi tarjima nafaqat lingvistik ko'nikmalarni, balki chuqur madaniy va siyosiy bilimlarni ham talab qiladi.

Siyosiy terminologiya doimiy ravishda o'zgarib turadi, yangi tushunchalar paydo bo'ladi, mavjud tushunchalarning ma'nosi kengayadi yoki torayadi [1]. Misol uchun, "demokratiya" yoki "suverenitet" kabi terminlar turli madaniyatlar va siyosiy tizimlarda turlicha talqin qilinishi mumkin. Boshqa sohalarga, masalan, texnik yoki tibbiy sohalarga nisbatan, siyosiy matnlarda denotativ ma'no bilan bir qatorda konnotativ, pragmatik va ideologik yuk ham katta rol o'ynaydi. Bu esa bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Sifatli tarjima lug'atlari tarjimonlar uchun muhim manba hisoblanadi. Biroq, umumiy lug'atlar siyosiy sohaning o'ziga xos terminologik ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi. Maxsus lug'atlar esa ko'pincha kontekstual ma'nolar va so'z birikmalarining turli variantlarini yoritib bera olmaydi, bu esa tarjimada xatolarga yoki ma'no buzilishiga olib kelishi mumkin [2]. Shu nuqtai nazardan, parallel matnlardan foydalanish siyosiy tarjima lug'atlarini shakllantirishda samarali yechim bo'lib xizmat qiladi.

Parallel matnlar — bu bir tildan boshqa tilga tarjima qilingan matnlar juftligi bo'lib, ulardan terminologik ekvivalentlarni aniqlash va kontekstual qo'llanilishini o'rganish uchun foydalaniladi [3]. Parallel matnlar korpus lingvistikasi va tarjimashunoslikning markaziy tushunchalaridan biri bo'lib, u nafaqat matnlarning mexanik jamlanmasi, balki tillararo ekvivalentlikni o'rganishning eng aniq metodologik bazasi hisoblanadi. G'arb tilshunosligida parallel matnlar (parallel corpora) ko'pincha tarjima sifatini oshirish va avtomatik tarjima tizimlarini o'qitish nuqtayi nazaridan ta'riflanadi. **Jon Sinkleyr** korpus lingvistikasining asoschilaridan biri sifatida u parallel matnlarni "manba matn va uning boshqa tildagi to'g'ridan-to'g'ri tarjimasi bo'lgan, o'zaro muvofiqlashtirilgan (aligned) matnlar to'plami" deb ta'riflagan[4]. **Mona Beyker** parallel korpuslarni tarjimashunoslikka (Translation Studies) tatbiq etgan ilk olimlardan biri. Uning fikricha, parallel matnlar tarjimonning individual uslubini (translator's thumbprint) va tarjima tilining o'ziga xos universal xususiyatlarini aniqlashga yordam beruvchi eng yaxshi manbadir[5]. **Linne Bovkere va Jenifer Peyrson kabi olimlar** parallel matnlarni terminologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilib, ularni "o'rganilayotgan tildagi terminlarning kontekstual ekvivalentlarini topish imkonini beruvchi ikki tilli resurs" deb atashgan[6].

Rus tilshunosligida parallel matnlar qiyosiy tipologiya va amaliy leksikografiya (lug'atshunoslik) uchun asosiy ob'ekt sifatida qaraladi. **V.P. Zaxarov** Sankt-Peterburg maktabi vakili sifatida u parallel korpusni quyidagicha ta'riflaydi: "Parallel korpus — bu ikki yoki undan ortiq tildagi matnlar to'plami bo'lib, ularning bir qismi boshqasining tarjimasi hisoblanadi va ular gap yoki so'z darajasida o'zaro bog'langan (annotatsiya qilingan) bo'ladi"[7]. Parallel matnlarni tillararo qiyosiy tahlil qilishning "laboratoriyasi" deya atagan yana bir yirik vakilimiz **V.A. Plungyan** hisoblanadi. Uning fikricha, parallel korpuslar orqali bir tildagi grammatik kategoriya ikkinchi tilda qanday "aks etishini" (reflection) aniq ko'rish mumkin[8].

O'zbek tilshunosligida parallel korpuslar so'nggi yillarda, ayniqsa raqamli gumanitar fanlar (Digital Humanities) doirasida jadal o'rganilmoqda. O'zbek tilshunosligining yirik namoyondasi **Baxtiyor Mengliyev** o'zbek korpus lingvistikasining asoschilaridan biri sifatida u parallel matnlarni o'zbek tilining milliy korpusini yaratishdagi muhim komponent deb hisoblaydi. Olimning fikricha, parallel matnlar o'zbek tili lug'at boyligini jahon tillari bilan qiyoslashda asosiy vositadir[9]. **Shahlo Xamroyeva** parallel korpuslarni yaratishning texnik va lingvistik asoslarini tadqiq etib, ularni

“tillararo morfologik va semantik muvofiqlikni ta’minlovchi ochiq axborot tizimi” sifatida tavsiflaydi[10]. Parallel korpuslarni avtomatik tahrir va tahlil dasturlari uchun zaruriy xomashyo (data) deb baholaydi. O‘z uslubiy qo‘llanmalarida parallel matnlarni “gaplar darajasida o‘zaro bog‘langan bilingvistik matnlar” deya fikr yuritgan olimimiz Manzura Abjalovadir[11]. Ingliz va o‘zbek tillari misolida o‘xshatishlarning (similes) parallel korpusi bo‘yicha izlanishlar olib borgan Anorxon Axmedova parallel matnlarni “stilistik va semantik ekvivalentlikni o‘rganishning ob‘ektiv manbai” deb ta’riflaganlar [12].

Bizningcha, parallel matnlar ---- bu shunchaki ikki tildagi matn emas, balki o‘zaro **tarjima** munosabatida bo‘lgan, segmentlar (gaplar yoki frazalar) darajasida **muvofiqlashtirilgan (aligned)**, lingvistik jihatdan **belgilangan (tagged)** raqamli matnlar majmuasidir.

Siyosiy parallel matnlarga e’tibor bersak, o‘ziga xos xususiyatlari bor: terminologik zichlik (har bir gapda bir nechta maxsus atama ishlatilishi); mafkuraviy yuklanganlik (so‘zlar doimo ma’lum bir siyosiy pozitsiyani ifodalaydi); institutsional bog‘liqlik (atamalar muayyan davlat tuzilmasi bilan bog‘liq); tarixiy-madaniy kontekst (atamalar tarixiy voqealar va an‘analar bilan chambarchas bog‘liq); shuningdek, formulalik(izoh o‘rnida qolipli) ya’ni ko‘plab siyosiy iboralar standartlashgan va takrorlanadigan.

Aynan shu xususiyatlar tufayli siyosiy parallel matnlar tarjima lug‘atlarini tuzishda, ayniqsa, qimmatli manba hisoblanadi: tarjimon real amaliyotda qo‘llaniladigan terminologik ekvivalentlarni autentik kontekstda ko‘radi va ularni abstrakt lingvistik birlik sifatida emas, balki muayyan mazmuniy, pragmatik va madaniy vaziyatda idrok etadi.

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda bir nechta tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot olib borish jarayonida asl natijani chiqarishda parallel matnlarga asoslaniladi. Shu sababli, oz miqdordagi terminlardan tashkil topgan bo‘lsada imperik korpus tuzish lozim. Asosiy metodlardan biri bu **korpus statistic tahlil metodi**. **Korpus shakllantirish**: siyosiy nutqlar, rasmiy hujjatlar va yangiliklar diskursidan iborat bo‘lgan parallel matnlar tanlab olindi. Masalan, ingliz-arab siyosiy parallel korpusi (EAPPC) 1 million so‘zdan iborat bo‘lib, unda 351 ta hujjat (nutqlar, intervyular va maktublar) jamlangan[13]. Al-Sayed Ahmad, Hammo va Yagi tomonidan ingliz-arab siyosiy parallel korpusi (EAPPC) ni yaratish tajribasi siyosiy sohadagi parallel korpus tuzishning universal metodologik modelini taqdim etganlar. Ushbu tadqiqot model dizayni namuna sifatida qo‘llanildi. **Segmentatsiya va Alignment (Muvofiqlashtirish)**: Matnlar gap va so‘z darajasida bir-biriga moslashtirildi. Buning uchun GIZA++, Hunalign yoki Uplug kabi maxsus dasturlardan foydalaniladi. **Kontekstual va Konkordans tahlili**: Tanlangan terminlar atrofidagi so‘zlar qurshovi (kontekst) o‘rganildi. Konkordans-lug‘atlar yordamida har bir so‘zning semantik izohi va nutqdagi real yuklamasi aniqlandi. **Ideologik freyming tahlili**: siyosiy matnlarda qo‘llanilgan ritorik strategiyalar va ideologik yukni aniqlash uchun N. Ferklo va van Deykning kritik diskurs tahlili metodlaridan foydalanildi[14].

Yuqorida ta’kidlangan korpus tahlili va diskursiv yondashuvlar tadqiqotning pirovard maqsadi — **siyosiy sohaga doir ikki tili kontekstual lug‘at modelini** shakllantirishga xizmat qildi. Lug‘at bazasini yaratishda quyidagi tizimli bosqichlar amalga oshirildi:

1. **Leksikografik saralash**: Parallel korpusdan ajratib olingan va eng yuqori chastotaga ega bo‘lgan terminlar tanlab olindi. Bunda terminning nafaqat rasmiy lug‘aviy ma’nosi, balki uning siyosiy diskursdagi funksional variativligiga ham e’tibor qaratildi.

2. **Kontekstual filtrlash**: Har bir termin uchun kamida 3-4 ta turli xil siyosiy matnlar (nutq, bitim, tahliliy maqola) asosida kontekstual tarjima namunalari birlashtirildi. Bu foydalanuvchiga so‘zning turli vaziyatlardagi ma’no nozikliklarini (nuance) ko‘rish imkonini beradi.

3. **Mikrotuzilmani shakllantirish**: Lug‘at maqolasi tarkibida terminini o‘zbekcha ekvivalenti bilan birga, uning pragmatik yukini ochib beruvchi maxsus izohlar (labeling) va parallel matndan olingan jonli misollar (illustrative examples) joylashtirildi.

Ushbu metodologik yondashuv siyosiy tarjima amaliyotida so‘zma-so‘z (literal) tarjimadan qochishga va terminlarning aslyatdagi maqsadiga (intent) mos keluvchi o‘zbekcha muqobillarini tizimlashtirishga zamin yaratadi.

NATIJARLAR

Tadqiqotning amaliy qismi uchun 2023-yildan 2026-yilgacha bo‘lgan davrdagi siyosiy sohaga oid manbalar tahlilga tortildi. Shu sababli, ishning empirik bazasini shakllantirishda O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik malumotlari milliy bazasi (**Lex.uz**), nufuzli axborot-tahliliy portali (**Kun.uz**) hamda O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (**UzA**) materiallaridan olingan 1000 dan ziyod parallel matnlar tanlab olindi. Kuzatuvlarimizning amaliy qismida yangiliklar diskursidagi parallel matnlar qiyoslanganda, terminlarning o‘zbek tilidagi ekvivalentlari kontekstual talabdan kelib chiqib tanlangani kuzatildi:

1-jadval

Siyosiy terminlarning kontekstual va ideologik tahlil jadvali

English Terms	O‘zbekcha termin	Kontekstual tarjima uchun misol (Parallel)	Ideologik yuk (Pragmatik ma’no)	Funksional taqsimoti
Constitutional Law	Konstitutsiyaviy qonun	Constitutional Law of the Republic of Uzbekistan-- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni	Davlatning oliy huquqiy irodasini va qonun ustuvorligini ifodalaydi.	Huquqiy-siyosiy
Legislative Chamber	Qonunchilik palatasi	Adopted by the Legislative Chamber on June 11 --- Qonunchilik palatasi tomonidan 11-iyunda qabul qilingan	Parlamentarizm va vakillik demokratiyasi institutini anglatadi.	Institutsional
Ambassador Extraordinary and Plenipotentiary	Favqulodda va muxtor elchi	Appointed as its new Ambassador Extraordinary and Plenipotentiary-- Yangi favqulodda va muxtor elchisi etib tayinlandi	Davlatning xalqaro maydondagi to‘laqonli vakolatini va diplomatik maqomini ko‘rsatadi.	Diplomatik
Accession	A‘zo bo‘lish / Kirish	WTO accession talks ---JSTga (ЖКТ) a‘zo bo‘lish bo‘yicha muzoaralar	Globalashuv jarayoniga qo‘shilish va xalqaro standartlarni qabul qilish irodasi.	Xalqaro hamkorlik
Credentials	Ishonch yorliqlari	Presented his credentials to President ---Prezidentga ishonch yorliqlarini topshirdi	Diplomatik tan olinish va davlatlararo rasmiy muloqotning boshlanishi ramzi.	Rasmiy-protokol
Poverty rate	Qashshoqlik darajasi	Reduce the poverty rate to 6% --Qashshoqlik darajasini 6 foizga tushiramiz	Ijtimoiy himoya va davlatning iqtisodiy islohotlaridagi mas’uliyatini ko‘rsatuvchi indikator.	Ijtimoiy-siyosiy
Ratification	Ratifikatsiya qilish	Law on ratification of the agreement ---Kelishuvni ratifikatsiya qilish to‘g‘risidagi qonun	Xalqaro majburiyatlarning milliy qonunchilik darajasida tan olinishi va kuchga kirishi.	Xalqaro huquqiy
Executive power	Ijro etuvchi hokimiyat	Powers of the executive body -- Ijro etuvchi organning vakolatlari	Davlat boshqaruvida qarorlarning ijrosini ta‘minlovchi markaziy bo‘g‘in.	Davlat boshqaruvi
Strategic partnership	Strategik sheriklik	To enhance bilateral strategic partnership --- Ikki tomonlama strategik sheriklikni mustahkamlash	Oddiy diplomatik aloqalardan yuqori, uzoq muddatli va ishonchli ittifoqchilik.	Tashqi siyosat
Restricted freedom	Ozodlikni cheklash	Sentencing them to five years of restricted freedom 5 yil muddatga ozodlikni cheklash jazosi	Davlatning jazolash siyosatidagi insonparvarlik yoki nazorat mexanizmi (kontekstga ko‘ra).	Sud-huquqiy

“Credentials” termini tahlili (14-matn asosida): Diplomatik matnlarda uchraydigan ushbu terminning so‘zma-so‘z tarjimasi ishonch qog‘ozlari yoki vakolatlar bo‘lishi mumkin. Biroq, rasmiy-siyosiy kontekstda u barqaror **“ishonch yorliqlari”** birikmasi orqali o‘g‘irilishi aniqlandi. Misol: **The**

president resented his credentials--- Prezident ishonch yorliqlarini topshirdi. **“Accession” termini tahlili (15-matn asosida):** Xalqaro tashkilotlarga a’zo bo’lish jarayonida ushbu termin kirish yoki qo’shilish ma’nolarini beradi. Ammo siyosiy diskursda u **“a’zo bo’lish”** birikmasi bilan sinonimik almashishga uchraydi. Misol: **“WTO accession talks”** – **“JST ga a’zo bo’lish bo’yicha muzokaralar”**. Yana bir yorqin misol, **reprimanded / disciplined terminlari (24-matn asosida):** ma’muriy-siyosiy boshqaruvda ushbu so’zlar kontekstga ko’ra o’zbek tilidagi rasmiy hayfsan berildi yoki intizomiy jazo berildi tushunchalari bilan qat’iy muvofiqlashtirilgan.

O’tkazilgan tahlillar shuni ko’rsatadiki, siyosiy sohaga oid terminlarni ingliz tilidan o’zbek tiliga o’girishda shunchaki lug’aviy muvofiqlik (dictionary equivalence) yetarli emas. Siyosiy sohaga doir tarjima lug’atini shakllantirishda parallel matnlarning kontekstual tahlili terminlarning nutqdagi real hayotini va funksional tabiatini ochib beradi. Ushbu tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan lug’at maqolalari modeli nafaqat tarjimashunoslik nazariyasini, balki amaliy diplomatik muloqot va siyosiy jurnalistika sohalarini ham sifatli terminologik baza bilan ta’minlashga zamin yaratadi. K.Varantolaning ta’kidlashicha, tarjimonlar o’z vaqtining 50% gacha qismini ma’lumotnomalarga murojaat qilish uchun sarflashi mumkin [15]. Parallel korpus esa ushbu vaqtni tejashga xizmat qiladi. Tipologik yo’nalishda izlanadigan tilshunoslar orasida parallel korpuslar muayyan darajada mashhurlikka erishdi, chunki parallel korpuslar tilni taqqoslash imkonini beruvchi tabiiy matnlardan misollar olish uchun foydali manba sifatida maydonga keldi[16].



Ushbu infografikada ko’rsatilgan sxemalar parallel matnlarning kontekstual tahlil asosida siyosiy terminlar lug’atini shakllantirishda muhim vazifalar ketma-ketligini namoyon etmoqda.

XULOSA

Mazkur tadqiqot siyosiy sohaga doir tarjima lug’atini shakllantirishda parallel matnlarning kontekstual tahlili muhim metodologik asos ekanligini ko’rsatdi. Tadqiqot davomida siyosiy diskursda qo’llaniladigan terminlar oddiy lug’aviy birlik emasligi, balki ma’lum pragmatik, ideologik va madaniy yukni o’zida mujassam etuvchi murakkab kommunikativ birliklar ekanligi aniqlandi. Shu sababli, ularni tarjima qilishda faqat semantik muvofiqlik emas, balki funksional va kontekstual ekvivalentlikni ta’minlash zarurligi isbotlandi.

Parallel matnlar asosida olib borilgan tahlillar siyosiy terminlarning real qo’llanish muhitini ochib berishga, ularning barqaror tarjima modellarini aniqlashga hamda turli siyosiy vaziyatlarda qanday pragmatik ma’no kasb etishini ko’rsatishga xizmat qildi. Tadqiqot natijasida “credentials”, “accession”, “strategic partnership”, “executive power” kabi terminlarning o’zbek tilidagi muqobillari kontekst asosida shakllanishi va ularning siyosiy diskursdagi funksional xususiyatlari belgilab berildi.

Shuningdek, tadqiqot parallel korpuslardan foydalanish tarjimon faoliyatida vaqt tejalishini, terminologik aniqlikning oshishini va siyosiy matnlar tarjimasida ma’no yo’qotilishining kamayishini

ta'minlashini ko'rsatdi. Korpus lingvistikasi, konkordans tahlili hamda kritik diskurs tahlili metodlarining integratsiyasi siyosiy tarjima lug'atini yaratishda samarali ilmiy-amaliy yondashuv ekanligi tasdiqlandi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan kontekstual lug'at modeli siyosiy tarjima, diplomatik muloqot, xalqaro jurnalistika va rasmiy hujjatlar tarjimasi uchun mustahkam terminologik baza yaratishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo'nalishda ko'p tilli siyosiy parallel korpuslarni kengaytirish, sun'iy intellekt asosidagi avtomatik termin ajratish tizimlarini joriy etish hamda raqamli siyosiy terminologik platformalarni yaratish istiqbolli tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. Prentice Hall
2. Baker, M. (1992). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge.
3. Bowker, L. (2002). *Computer-Aided Translation Technology: A Practical Introduction*. University of Ottawa Press.
4. Sinclair, J. M. (1991). *Corpus, Concordance, Collocation*. Oxford University Press.
5. Baker, M. (1995). *Corpora in Translation Studies: An Overview and Some Suggestions for Future Research*.
6. Bowker, L., & Pearson, J. (2002). *Working with Specialized Language: A Practical Guide to Using Corpora*.
7. Захаров В. П. (2005). *Корпусная лингвистика*.
8. Плунгян В. А. (2011). *Введение в грамматическую семантику*.
9. Mengliyev B., Xamroyeva Sh. (2020). *Korpus lingvistikasi. O'quv qo'llanma*.
10. Xamroyeva Sh. (2021). *O'zbek tili morfologik analizatorining lingvistik ta'minoti*.
11. Abjalova M. (2022). *Korpus lingvistikasi: uslubiy qo'llanma*.
12. Axmedova A. (2020). *Parallel korpusda o'xshatishlarning leksik-semantik munosabatlari*.
13. Ahmad, A. A., Hammo, B., & Yagi, S. (2017). *English-Arabic Political Parallel Corpus: Construction, Analysis and a Case Study*. JJCIT.
14. Fairclough, N. (2020). *Analyzing discourse: Textual analysis for social research (Vol. 21)*. Retrieved from <http://journal.um-surabaya.ac.id/index.php/JKM/article/view/2203>.
15. Varantola, K. (2000). *Translators, dictionaries and text corpora*. In S. Bernardini & F. Zanettin (Eds.), *Corpus Use and Learning to Translate* (pp. 1–17). Bologna: CLUEB.
16. Perkova, N., & Sitchinava, D. (2016). *On the development of a Latvian-Russian parallel corpus*. In I. Skadiņa & R. Rozis (Eds.), *Human Language Technologies – The Baltic Perspective: Proceedings of the Seventh International Conference (Vol. 289, pp. 130–135)*. Amsterdam: IOS Press. <https://doi.org/10.3233/978-1-61499-701-6-130>.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА
INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000